



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

XIX ASR IKKINCHI YARMIDA HINDISTONDA INGLIZ BOSHQARUVNING ISLOH QILINISHI

Rayimov Farhod Ulug'bekovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, assistent

Annotatsiya

Ushbu maqolada XIX asr ikkinchi yarmida Hindistondagi ingliz mustamlakachilik boshqaruvi tahlil qilingan. Sipohiyalar qo'zg'aloni natijasida Ost-Indiya kompaniyasining tugatilishi hamda boshqaruvni Britaniya hukumatiga bo'ysundirilishi shuningdek, Hindistonda olib borilgan islohotlar va ularning natijalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Sipohiyalar qo'zg'aloni, Ost-Indiya, Vitseroylik, Charlz Vud, London, Panjob, Nepal, Himolay, Javahlal Neru, Viktoriya, Sikx, Hindiston.

РЕФОРМЫ БРИТАНСКОГО ПРАВЛЕНИЯ В ИНДИИ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX ВЕКА

Райимов Фарход Улугбекович

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, ассистент

Аннотация

В данной статье анализируется британское колониальное правление в Индии во второй половине XIX века. Рассматривается роспуск Ост-Индской компании и передача контроля британскому правительству в результате восстания сипаев, а также реформы, проведенные в Индии, и их результаты.

Ключевые слова: восстание сипаев, Ост-Индия, вице-король, Чарльз Вуд, Лондон, Пенджаб, Непал, Гималаи, Джавахарлал Неру, Виктория, сикхи, Индия.

REFORM OF BRITISH RULE IN INDIA IN THE SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY

Rayimov Farhod Ulug'bekovich

Samarkand State University named after Sharof Rashidov, Assistant

Abstract

This article analyzes British colonial rule in India in the second half of the 19th century. It examines the dissolution of the East India Company and the transfer of control to the British government following the Sepoy Mutiny, as well as the reforms implemented in India and their results.

Keywords: Sepoy Mutiny, East Indies, Viceroy, Charles Wood, London, Punjab, Nepal, Himalayas, Jawaharlal Nehru, Victoria, Sikhs, India.

1857-1859-yillardagi Hindistondagi sipohiyalar qo'zg'aloni natijasida Britaniya Hindistonidagi hukmronlik tizimini tubdan o'zgartirib yuborgan eng muhim voqea bo'ldi. Keyinchalik hind xalqining yirik davlat arbobi Javaharlal Neru o'zining "Hindistonning kashf etilishi" asarida ta'kidlaganidek, "Garchi qo'zg'olon mamlakatning faqat ayrim qismlariga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, u butun Hindistonni va ayniqsa Britaniya boshqaruv tizimini larzaga keltirdi" deb yozgan edi.

Bu qo'zg'olon natijasida 250 yillik hukmronlik qilgan Ost-Hind kompaniyasi tugatilib, Hindistonni boshqarish Britaniya tojiga bo'ysundirildi va "Vitse-qirollik" tizimi joriy etildi.

Ushbu jarayon nafaqat siyosiy-huquqiy, balki ma'muriy, harbiy, moliyaviy va ijtimoiy sohalarida chuqur markazlashuvga olib keldi. Bu jihatlari Hindiston tarixini tubdan yangilab, davlatni to'liq ingliz boshqaruvi asosida qurishni bildirar edi.

Tadqiqotning obyekti va qo'llanilgan metodlar. Qo'zg'olon tugagach, Britaniya parlamenti 1858-yil 2-avgustda "Hindistonni yaxshiroq boshqarish to'g'risida"gi qonun (Government of India Act 1858) ni qabul qildi [Arnold, 2000: 47]. Ushbu qonunning qabul qilinishi eng avvalo Ost-Hind kompaniyasining siyosiy vakolatlarini bekor qilish edi. Kompaniya o'z faoliyatini nafaqat savdo maydonida balki Hindistonni harbiy, siyosiy va moliyaviy boshqarishda ham to'liq hukmronlik qilgan edi.

Ammo 1857-yilgi qo'zg'olon kompaniyaning bu ishlarni ado etishga qodir emasligini yaqqol ko'rsatdi. Shu sababli ham kompaniyaning barcha vakolatlari tugatilib, uning barcha huquqlari Britaniya hukumatiga o'tkazildi. Kompaniyaning direktorlar kengashi tarqatilib, uning o'rnida London markazida ingliz idorasi tashkil etildi. Ushbu idoraning boshlig'i Hindistonning siyosiy taqdirini belgilovchi eng muhim davlat arbobi maqomiga ko'tarildi [Roy, 2005: 44].

Ingliz hukmron doira vakillari tomonidan 1859-yil noyabr oyida Agra shahrida bo'lib o'tgan katta ziyofatda mamlakatning boshqa bir qator mintaqalarining hukmron shahzodalari Hindistonning general-gubernatori va birinchi vitse-qirol Lord Kanning (1856–1862) bilan uchrashuvga taklif qilinganida, Britaniyaning "escheat" (ya'ni, to'g'ridan-to'g'ri erkak merosxo'ri bo'lmaganlar) shahzodalik davlatlariga nisbatan siyosatidagi o'zgarish birinchi marta e'lon qilindi. Vitse-qirol Kann Gvalior knyazligi hukmdori Sindxiyaga asrab olingan merosxo'rnin tanlashga ruxsat berdi. [Dalrymple 2006: 113]

Keyingi yilidan boshlab bunday huquq yuqori unvonlarga ega bo'lgan barcha feodallarga, ularning Britaniya hukumatiga sodiq xizmat qilish sharti bilan berildi. Ilgari inglizlar tomonidan musodara qilingan ba'zi knyazliklar sobiq hukmdorlarning asrab olingan o'g'illariga qaytarildi: 1859-yilda Tehri-Garhval, 1861-yilda Kolhapur va 1864-yilda Dhar kabi hududlar edi. Mazkur choralarni amalga oshirish orqali mustamlaka hokimiyati Dalxauzining "merosxo'rlik" doktrinasidan voz kechib, qirolicha Viktoriyaning shahzodalar mulklarining yaxlitligi va daxlsizligini saqlab qolish haqidagi deklaratsiyasida berilgan va'dani amalga oshirdi [Moore, 1993: 94].

Ingliz hukmron doira vakillari tomonidan 1861-1864-yillardagi harbiy islohot natijasida mustamlaka armiya shunday qayta tashkil etildiki, buning natijasida Britaniya bo'linmalarining roli sezilarli darajada oshdi. Mustamlaka ma'murlar tomonidan tashkil etilgan bo'limalar asosan turli milliy, diniy va kasta guruhlarini qo'llash orqali o'zlari uchun yangi tayanch yaratishga harakat qildilar. Shu sababli sipoylar asosan Panjob sikxlaridan, shuningdek, Hindistonning tog'li hududlari bo'lgan Himolay va Nepalda yashovchi aholi hisobiga armiya soni muntazam oshirib borildi [Симонов, 2014. С. 145].

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatning asosiy hududlari aholisi bilan unchalik aloqasi bo'lmagan etnik guruhlarini armiyaga jalb qilish boshladi. Ingliz askarlari asosan multiqlardan foydalangan bo'lsa, Sipohiyalar esa silliq stvolli to'plar bilan qurollangan edilar. Shu bilan birga, harbiy islohot kichik ofitser lavozimlarini to'ldirish uchun yangi tizimni yaratdi, bu esa hind feodal zodagonlaridan bo'lganlarning lavozimga ko'tarilishiga imkon berdi. Britan hukmron doira vakillar harbiy islohotni o'tkazishda asosan ikki maqsadni ko'zlagan edi: Birinchidan, Hindistonda Britaniya mustamlaka tizimini markazlashtirish va mustahkamlash, ikkinchi tomondan, feodal yer egalari sinfi shaklida mustamlaka hokimiyati uchun kuchli ijtimoiy tayanch yaratish.

Bu yillarda amalga oshirilgan ma'muriy islohot ham xuddi shunday maqsadga ega edi. 1861-yildagi "Hindiston kengashlari to'g'risida"gi qonunga ko'ra, Vitse-qirol, uchta Prezidentlik gubernatorlari va shimoli-g'arbiy viloyatlar hamda Panjob general-gubernatorlari huzurida maslahat vazifalariga ega qonun chiqaruvchi kengashlar tashkil etildi [Айзенштат М.М. М., 1999]. Kengash a'zolarining kamida yarmi davlat xizmatidan tashqaridan tayinlanishi shart edi.

Ma'muriy islohotning maqsadi Hindiston bo'yicha davlat kotibi Charlz Vudning 1861-yilda Jamoatlar palatasida so'zlagan nutqida ochiqchasiga ochib berilgan edi. Ushbu chiqishida Charlz Vud hind feodallarini qonun chiqaruvchi kengashlar ishiga jalb qilish zarurligini asoslab, vazir shunday dedi: "Shuni ishonch bilan aytmogchimanki, boshqa hech narsa hukumatimizdagi yuqori martabali mahalliy aholining xayrixohligiga bunchalik katta hissa qo'sha olmaydi" [Кутина М.М. Ташкент, 1965]. Ushbu islohot natijasida qabul qilingan qonunga muvofiq kengashlar asosiy siyosat masalalari - moliya, soliq, qurolli kuchlar, din, knyazlik davlatlari va xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlar - kengashlarda muhokama qilinmasligi aniq belgilangan edi. Vitse-qirol ingliz ma'muriyatining turli bo'limlari rahbarlaridan tashkil topgan, "Ijroiya kengashi" yordamida markaziy va viloyat qonun chiqaruvchi kengashlarining qarorlari ustidan veto huquqiga ega edi. Ushbu yillarda amalga oshirilgan sud islohoti davlat organlarining markazlashuvini va undagi Britaniya mustamlakachi ma'murlarining ta'sirini kuchaytirishga ham qaratilgan edi.

Natijada, oldin mavjud bo'lgan Hindiston kompaniyasi sudlari (sadr adalatlari) tizimi bekor qilindi va 1861-yilda uchta prezidentlikning har birida va 1866-yilda shimoli-g'arbiy viloyatlarda oliy sudlar tashkil etildi. Sipohiylar qo'zg'aloni paytida inglizlarni qo'llab-quvvatlagan mahalliy feodal elitani saxovat bilan taqdirladilar[Dobbin Ch.E. London. 1970]. Rampur Patiala, Jind, va Gvalior hukmdorlari kabi ba'zi shahzodalarga qo'zg'olonchilardan musodara qilingan yerlardan katta hududlar berildi.

Feodal yer egalari va shahzodalarga yerlar berish orqali inglizlar hind jamiyatining yuqori qatlami bilan ittifoqlarini iqtisodiy jihatdan mustahkamladilar, bu esa hind feodallarining hind xalqining milliy manfaatlariga xiyonat qilishiga asoslangan edi. Bu shuningdek, Hindistondagi Britaniya siyosatining asosiy tamoyillaridan birini – "bo'lib tashla va hukmronlik qil"ni ham namoyish etdi. Ahamiyatli jihati shundaki, mustamlakachilar knyazlik davlatlarining hududiy chegaralarini aholi o'rtasida diniy nizolarni qo'zg'atish uchun qulay sharoitlar yaratadigan tarzda o'zgartirdilar. Ingliz mustamlaka ma'muriyatining knyazlik davlatlari ustidan nazoratining kuchayishi 1877-yil 1-yanvarda, Hindiston knyazlari uchun Vitse-qirol bilan maxsus qabulda Britaniya qirolichasi Hindiston qirolichasi imperatori deb e'lon qilinishi bilan rasmiylashtirildi[S.David.L 2002.P.105]. Bu shuni anglatardiki, knyazlik davlatlari Britaniya imperiyasiga qo'shilib, nafaqat amalda, balki qonuniy jihatdan ham tojning vassallariga aylandi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Angliyaning "dunyo ustaxonasi" sifatidagi mavqeyning asta-sekin yo'qotishi shuningdek, Fransiya va Germaniya kabi mustamlakachi davlatlarning Afrika, Okeaniya va Janubi-Sharqiy Osiyo hamda boshqa bir qancha hududlarda ta'sirning ortishi oqibatida Britaniya iqtisodiy rivojida Hindistonning ahamiyati yanada oshdi. Ayniqsa bu jarayon Amerika (1861-1865) fuqarolar urushi vaqtida Amerika paxta xom ashyosning eksportining Yevropaga keskin kamayishi natijasida hind paxtasiga talabning ortishi sababli Hindiston Britaniyaning asosiy paxta yetkazib beruvchisiga aylandi. Bu vaqtga kelib ingliz burjuaziyasi tomonidan Hindistondan paxta, ziravorlar, guruch, bug'doy jun, jut, palma tolasi, moyli urug'lar, indigo va afyun kabi mahsulotlarni eksportni oshirdi.

Ushbu davrda Hindistonga ingliz tovarlarning eksporti besh barobar ortdi. Bundan tashqari mazkur vaqtga kelib mustamlakachi amaldorlar tomonidan aholidan olinadigan soliqlar miqdorning muntazam oshirib borildi yoki yangilar joriy qilindi. 1859-yilga kelib aholidan olingan soliqlar miqdori 361 million rupiydan 1890-yilga kelib esa 891 million rupiyni tashkil etdi. Bunday soliqlarning ortishi hind dehqonlarning ahvolini yanada og'irlashtirdi[S.R.Wasti. 1993.P.8].

Mustamlaka ma'murlar tomonidan olib borilgan soliq siyosati natijasida sudxo'rlikning avj olishiga hamda ko'plab dehqonlar va hunarmandlarning ommaviy ravishda xonavayron bo'lishiga, ishchi ommaning qashshoqlashishiga va ommaviy ocharchilikka olib keldi. 1850-1875-yillar oralig'ida olti marta, 1875-1900-yillar oralig'ida esa 18 marta ocharchilik bo'lib, buning natijasida besh million inson vafot etdi[S.R.Wasti. 1993.P.8].

Xulosa. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib ingliz mustamlakachilik boshqaruvining kuchayishi natijasida Hindistonda feodal va sudxoʻrlik zulmining ortishi va mamlakatda kapitalizmning rivojlanishi burjua sinflarining shakllanishiga sabab boʻldi, bu esa mamlakat ichidagi sinfiy qarama-qarshiliklarning, shuningdek, hind jamiyati sinflari va Britaniya imperializmi oʻrtasidagi qarama-qarshiliklarning kuchayishiga olib keldi. Bu vaqtga kelib davlat markaziy boshqaruvning shakllanishi sezilarli darajada yakunlandi. Uning asosiy xususiyati shundaki, u asosan Britaniya hukumron sinflarining manfaatlariga xizmat qilgan. Shuning uchun uning yuqori boʻgʻinlari (Hindiston uchun qonunlar qabul qilgan parlament va mustamlakachilik maʼmuriyatini maxsus vazirlik orqali nazorat qilgan hukumat) Londonda joylashgan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Arnold D. The colonial state in India: A case study of the 1857 rebellion. Cambridge University Press. 2000. P. 47
2. Roy S. Colonialism and rebellion: The 1857 revolt and British rule. Oxford University Press. 2005. P. 44
3. Dalrymple W. The last mughal: The fall of a dynasty, Delhi, 1857. Bloomsbury Publishing. 2006. P. 112
4. Moore S. The British Raj and the shaping of India's political landscape after 1857. Asian Studies Review. 1993. P. 33
5. Симонов А. В. Империя и колониализм в полемике британских интеллектуалов во второй половине XIX – начале XX века // Интеллигенция и мир. 2014. С. 145
6. Айзенштат ММ., Гелла Т.Н. Английские партии и колониальная империя Великобритании в XIX в., 1815-1870-х гг. М., 1999
7. Кутина ММ. К истории национально-освободительного движения в Индии в XIX в. (образование партии Индийский национальный конгресс). Ташкент, 1965
8. Dobbin Ch.E. Basic Documents in the Development of Modern India and Pakistan, 1835-1947, L., 1970
9. S. David. The Indian Mutiny: 1857. London , 2002. P.105
10. S.R.Wasti. "British Policy towards the Indian Muslims Immediately after 1857."Muslim Struggle for Freedom in India, Delhi: Renaissance Publishing House, 1993. P. 8